

ATOYI G'AZALIDA OSHIQ OBRAZI TALQINI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

2-bosqich talabasi

Azamatova Sevinch Shuxrat qizi

Ilmiy rahbar:

Tohirov S

Annotatsiya: Ushbu maqolada Atoyining “*Bo‘lsun sanga*” radifli g‘azali asosida oshiq obrazi badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lirik qahramonning sadoqati, sabr-toqati, kechirimlilik va fidoyiligi aniq baytlar misolida yoritiladi. Shuningdek, oshiq obrazining ma‘naviy kamolotga erishish jarayoni, uning ishq yo‘lida o‘zligini unutishi va yuksak axloqiy fazilatlarni namoyon etishi ilmiy asosda ochib beriladi. Tahlil jarayonida oshiqning nafaqat ma‘shuqqa, balki raqibga nisbatan ham bag‘rikeng munosabati uning komil inson darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatishi ta‘kidlanadi. Natijada, Atoy lirikasida oshiq obrazi insonni ma‘naviy poklanish va ruhiy yuksalishga yetaklovchi badiiy timsol sifatida talqin etilishi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: lirik qahramon, ma‘naviy kamolot, sadoqat, sabr-toqat, fidoyilik, kechirimlilik.

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida XV asr alohida yuksalish davri sifatida e‘tirof etiladi. Bu davrning yirik shoirlari, mutafakkirlari va adabiy maktab vakillari turkiy tilda yuksak badiiy asarlar yaratib, keyinchalik Alisher Navoiy ijodiga zamin hozirlagan. Ana shunday ulug‘ siymolardan biri – Atoyidir. Atoy o‘zining o‘ta nafis lirizmi, soda va ravon tili, inson tuyg‘ularini nozik va teran tasvirlash mahorati bilan Sharq she‘riyatida o‘ziga mustahkam o‘rin egallagan.

Mumtoz adabiyotda shunday shoirlar ham borki, ular birgina bayti bilan mashhur bo‘lib ketadi. Bunday yuksak badiiy namunalar “*shohbayt*” deb ataladi. Atoy ham ana shunday shoirlardan biri bo‘lib, uning quyidagi bayti xalq orasida keng tarqalgan va shoir nomini mashhur qilgan:

Ul sanamkim, suv yoqosinda paritek o‘lturur,

G‘oyati nozuklukdin suv bila yutsa bo‘lu.

Alisher Navoiygacha o‘tgan turkiy adabiyotning zabardast namoyandalaridan biri, o‘zbek g‘azalchiligi ustozlaridan bo‘lgan Atoy XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan. Yassaviya shayxlari avlodidan bo‘lganligi uchun Shayxzoda Atoy deb yuritiladi. U bir – ikki avlod orqali bevosita “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi” Xoja Ahmad Yassaviyda borib bog‘lanadi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida yozadi: “Mavlono Atoy Balxda bo‘lur erdi.



Ismoil ota frzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit kishi erdi. Turkigo'y erdi. O'z zamonida she'r atrok orasida ko'p shuhrat tutti ... Mavlono ko'p turkona aytur erdi ... Qabri Balh navohisidadur" deya aytib o'tgan [1, 74-75].

Asosiy Qism

Mavlono Atoyi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ishqni ham hayotiy, ham ilohiy darajada yuksak badiiy mahorat bilan kuylagan iste'dodli shoirdir. Uning g'azallarida markaziy o'rinni egallagan lirik qahramon – oshiq obrazi oddiy his-tuyg'ular bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u murakkab ruhiy kechinmalarni boshdan kechirayotgan, ichki iztiroblar orqali poklanib, ma'naviy kamolot sari intilayotgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Atoyi tasviridagi oshiq – bu nafaqat sevuvchi inson, balki ishq yo'lida o'zligini unutgan, borlig'ini mahbub yo'lida fido qilishga tayyor fidoyi qalb egasidir. Uning sadoqati mutlaq bo'lib, har qanday azob-uqubatlarni sabr bilan qabul qiladi. *Hijron, visol, umid va noumidlik* kabi qarama-qarshi tuyg'ular oshiq qalbida uzluksiz kurash olib boradi va aynan shu ichki ziddiyatlar uning ruhiy yetuklikka erishishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shoir ishqni ikki qatlamda talqin etadi: biri – insoniy, ya'ni yor va oshiq o'rtasidagi muhabbat; ikkinchisi esa – ilohiy ishq bo'lib, u orqali inson Haqqa yaqinlashadi. Shu jihatdan Atoyi g'azallaridagi oshiq obrazi tasavvufiy mazmun kasb etib, *nafsni yengish, ruhni poklash va ilohiy haqiqatni anglash* yo'lida izlanayotgan komil inson timsoliga aylanadi.

Mumtoz she'riyat an'alariga ko'ra, oshiq ma'shuqaning jabr-u jafosini o'ziga rohat deb bilishi lozim. Bu qarash tasavvufiy talqinlarda ham chuqur ildizga ega bo'lib, unda azob – poklanish, hijron – kamolot sari eltuvchi vosita sifatida tushuniladi. Mavlono Atoyi ijodida esa ushbu an'ana yanada samimiy, hayotiy va ruhiy kechinmalar bilan boyitilib, o'quvchiga yanada yaqinlashtiriladi. Atoyi g'azallarida oshiqning eng muhim xususiyatlaridan biri – uning cheksiz sadoqatidir. Bu sadoqat shunchaki va'da yoki tuyg'u emas, balki amalda isbotlanadigan, fidoyilik bilan mustahkamlangan holatdir. Oshiq uchun ma'shuqaning har qanday munosabati – u mehr bo'ladimi yoki jafo – barobar qabul qilinadi. Chunki uning nazarida ishqning asl mohiyati ham aynan shu sinovlardan o'tishda namoyon bo'ladi. Shoirning "*Bo'lsun sanga*" radifli g'azalining matla'sida bu hol nihoyatda ta'sirchan ifoda etiladi:

Ey ko'nglum olgon dilrabo, jonim fido bo'lsun sanga,

Obi hayot Xizr ila umri baqo bo'lsun sanga [2,29].

Mazkur baytda oshiq o'z jonini ma'shuq yo'lida fido etishga tayyor ekanini bildiradi. "*Jonim fido bo'lsun*" jumlasini orqali oshiq muhabbatining nihoyatda chuqur va samimiy ekanligi, uning sadoqati mutlaq darajaga yetgani ko'rsatiladi. Shu bilan birga, oshiq ma'shuqqa abadiy umr tilaydi. Bu esa uning muhabbati shaxsiy manfaatdan xoli, sof va yuksak ma'naviy mohiyatga ega ekanini anglatadi. Demak, oshiq obrazi bu yerda o'zini emas, ma'shuqni ustun



qo'yuvchi fidoyi shaxs sifatida gavdalanadi.

Oshiqning ma'naviy kamoloti uning sabr-toqati va kechirimligida ham namoyon bo'ladi. Atoyi g'azallarida oshiq ma'shuqaning beparvoligi va hatto haqoratlariga ham yuksak axloq bilan javob beradi:

Qilsam nasihatni "gunah qon to'kma" deb, so'ktung meni,

Har bir so'kunchung o'rnida yuz ming duo bo'lsin sanga [2, 29].

Ushbu baytda oshiq o'z jonini ma'shuq yo'lida fido etishga tayyor ekanini bildiradi. Mazkur baytda oshiqning ichki olami nihoyatda yuksak darajada tasvirlangan. U haqoratga nisbatan g'azab yoki nafrat bilan emas, balki ezgulik – duo bilan javob qaytaradi. Bu holat oshiqning nafs ustidan g'alaba qozonganini, uning ruhiy jihatdan yetuk shaxsga aylanganini ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, oshiq obrazi bu yerda komil inson sifatida namoyon bo'ladi.

Atoyi oshiq obrazini faqat sabrli va sadoqatli emas, balki iztiroblar orqali kamol topuvchi shaxs sifatida ham tasvirlaydi. Ishq yo'lida uchraydigan jafolar oshiq uchun sinov vazifasini bajaradi:

Har nechakim javru jafo qilding mango bu dunyoda,

Mahsharda lufu marhamat Haqdin ato bo'sun sanga [2, 29].

Bu baytda oshiq ma'shuqaning barcha jafolarini tabiiy hol sifatida qabul qiladi. U bu dunyodagi azoblarini yengib, ma'shuqa oxiratda ham yaxshilik tilaydi. Bu esa oshiq muhabbatining oddiy hissiy kechinma emas, balki ilohiy mohiyat kasb etganini ko'rsatadi. Demak, oshiq obrazining ma'naviy kamoloti uning dunyoviy manfaatlardan voz kechib, yuksak axloqiy qadriyatlar asosida yashashida namoyon bo'ladi.

G'azalda raqib obrazining tilga olinishi ham oshiqning ichki dunyosini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Garchi raqibi mudda'i har dam havorijliq qilur,

Hamrohu hamdam, himmati oli abo bo'lsun sanga [2, 29].

Bunda raqib oshiq muhabbatiga to'sqinlik qiluvchi kuch sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, oshiq unga nisbatan ham yomonlik qilmaydi. Aksincha, unga ezgulik tilaydi. Bu holat oshiqning axloqiy jihatdan nihoyatda yuksak darajaga ko'tarilganini ko'rsatadi. Shuningdek, oshiqning ma'naviy kamoloti faqat ma'shuqaga bo'lgan munosabatda emas, balki atrofdagi barcha insonlarga, hatto raqibga nisbatan ham bag'rikenglik va oliyjanoblik bilan munosabatda bo'lishida namoyon bo'ladi.

G'azalning maqtasida esa oshiqning ichki ruhiy holati va ishqqa to'liq berilganligi ifodlanadi:

So'rsang Atoyi xastani, goh-goh yaxshi ot uchun,

Ey shaxsuvorim, to abad shohlar gado bo'lsun sanga [2, 29].

Maqtada oshiq o'zni "xasta" deb ataydi, ya'ni ishq dardiga muhtalo bo'lganini bildiradi. Bu uning muhabbatga to'liq berilganini, o'zligini ishq yo'lida qurbon qilganini ko'rsatadi. Shunga qaramay, u yana ma'shuqaga



ezgulik tilashda davom etadi. Bu esa oshiq sadoqatining uzluksiz va davomiy ekanini anglatadi.

Oshiq obrazining ichki ruhiy kechinmalari Atoyi lirikasida psixologik, hissiy va ma'naviy qatlamlar bilan boyitilgan. Oshiqning ichki olami qarama-qarshilik, iztirob, shodlik, umid, fidoyilik va ruhiy o'sish bilan to'la. Shu tarzda Atoyi oshiq obrazini nafaqat romantik sevgi qahramoni, balki ruhiy izlanishchi va ma'naviy kamolot sari intiluvchi shaxs sifatida yaratadi. Oshiqning ichki kechinmalari uning munosabatdagi qat'iyatini yanada teran ochadi. Bu esa Atoyi lirikasining hissiy va estetik kuchini oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mavlono Atoyi ijodida oshiq obrazi mumtoz she'riyat an'alariga tayangan holda, o'ziga xos badiiy-falsafiy talqin bilan boyitilgan. Shoir g'azallarida oshiqning ma'shuqa jabr-u jafosini mamnuniyat bilan qabul qilishi, uning ishq yo'lidagi cheksiz sadoqati va fidoyiligi asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda oshiq obrazi nafaqat an'anaviy timsol sifatida, balki murakkab ruhiy kechinmalarni boshdan kechiruvchi, ma'naviy kamolot sari intiluvchi shaxs sifatida talqin etiladi. Xususan, "Bo'lsun sanga" radifli g'azalda oshiqning mutlaq taslimiyati va o'zligini ma'shuqa ixtiyoriga topshirishi orqali ishqning yuksak darajasi ifodalanadi. Shu jihatdan, Atoyi lirikasida ishq konsepsiyasi estetik hodisa bilan bir qatorda, chuqur tasavvufiy va falsafiy mazmun kasb etgan badiiy tizim sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. –Toshkent, 1961.
2. Atoyi. Devon. – Toshkent: O'zRFA, 2008. –B. 319.
3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi (I kitob). – Toshkent: O'qituvchi, 1965. – B. 659.
4. N Rahmonov. O'zbek adabiyot tarixi. –Toshkent: Sano-standart, 2017. –B. 556.
5. Ahurova H. Atoyi lirikasida badiiy obraz va tasvir uyg'unligi (maqola). International scientific-online conference. Volume 1, Issue 5: 31-may, 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6596719>
6. Manba: <https://scribd.com>

